

SIFATLI TA'LIMDA INTEGRATSIYANING O'RNI

Zilola Saidova

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada ta'lim jarayonini integratsiyalash, o'quv dasturlariga sifatli ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari bo'yicha o'qitish hamda ta'lim jarayonida vujudga keladigan pedagogik muammolari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: aloqadorlik., barkamol shaxs, integratsiya, yaxlit, shaxsni shakllantirish, mantiqiy va emotsiyal.

ANNOTATION: This article talks about the integration of the educational process, the introduction of quality educational technologies into the curriculum, teaching on educational technologies that develop critical thinking, and pedagogical problems that arise in the educational process.

Key words: relationality, complete personality, integration, holistic, personality formation, logical and emotional.

АННОТАЦИЯ: В данной статье говорится об интеграции образовательного процесса, внедрении в учебный план качественных образовательных технологий, преподавании образовательных технологий, развивающих критическое мышление, педагогических проблемах, возникающих в образовательном процессе.

Ключевые слова: отношения, целостная личность, интеграция, целостное, формирование личности, логико-эмоциональное.

KIRISH

Ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish muhim omildir. Shu sababli zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or o'qituvchilar tayyorlashda



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th June, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

ushbu qo'llanmaning ahamiyati katta. Shuningdek, kitobda innovatsion texnologiyalarning shakllanish tarixi, pedagogik integratsiyaning ilmiy asoslari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi, pedagogik jarayonni shakllantirish va samarali boshqarish texnologiyasi hamda rivojlanayotgan ta'limning integratsiyasi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi va ta'lim san'ati texnologiyasini ilmiy-amaliy nuqtai nazaridan vizualizatsiya qilish masalalarida ham atroflicha fikr bildirilgan. Bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan pedagog darajasida tayyorlash, ularni o'ziga xos malakaga ega bo'lishga yo'naltirish va bu borada zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish pedagogik faoliyatni amaliyatga joriy etishda yordam beradi. Hozirgi kunda "Integratsiya" tushunchasining aniq ta'rifi metodik adabiyotlarda, bu muammo bo'yicha shug'ullangan olimlar tomonidan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'riflarda berilgan. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich mакtabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik mакtab o'quvchisi predmet yoki voqeа hodisalarini bir necha tomonidan ko'rishi muhim: mantiqiy va emotsiyal tomonidan badiiy asarda hamda ilmiy-ommabop maqolada biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog'lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog'lanish, ya'ni uzviylikni ta'minlash bugungi kuning eng dolzarb masalalaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, pedagogika fani yuksak aqliy salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, shunga ko'ra bugungi kunda davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan qabul qilingan muhim me'yoriy hujjatlar "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, —2004-2009 yillarda mакtab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"da ko'rsatib o'tilgan barkamol shaxsni shakllantirish yo'nalishlari, qonunyatlari va tamoyillariga asoslangan holda keng ko'lamli tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyati vujudga keldi. Shu sababli pedagogika fani haqli ravishda davlat tomonidan fanning ustuvor sohalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu jaraynda esa oliy ta'lim tashkilotlarida fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli



NATIJALAR

Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o‘qitishda ularning integratsiyasini ta‘minlashga yetarli e‘tibor berilmay kelmoqda. Hatto, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi o‘quv rejalaridagi fizika va elektrotexnika, kimyo va materialshunoslik kabi fanlar ham tizimli o‘zaro bog‘liqlikni ta‘minmagan holda o‘qitilmoqda. Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o‘quv rejalarida ushbu fanlarni o‘qitishning vaqt bo‘yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg‘unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta‘minlovchi o‘quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda. Didaktika o‘quv fanlarini integratsiyalashga bir qancha yondashuvlarni taklif qiladi, biroq hali bu jarayonning umume‘tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas. Ko‘pchilik pedagog olimlar ta‘limdagи integratsion jarayonlarni o‘rganishda fundamental fanlarni integratsiyalashdagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda ish ko‘radilar.

MUHOKAMA

O‘quv fanlari integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi. Bu ma‘noda integratsiya – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o‘quv fanlariga bo‘lib o‘qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlash shakli sifatida qaralishi mumkin. O‘quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o‘quv fanlari bo‘yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma‘noda qaralganda, o‘quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o‘zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi. O‘quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi sub‘ektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo‘lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – sub‘ektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th June, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

O'quv fanlarini integratsiyalashgan holda o'rganishda sub'ektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? – degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o'quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko'rsatmoqda. Biz, ta'lim tizimida tarixan tarkib topgan fanlarga bo'lib o'qitish tizimi saqlanib qolishining tarafдоримиз. O'quv fanlari nisbatan mustaqil bo'lishi kerak, chunki ularning har biri o'z tili, tushunchalar apparati, metodologiyasi, metodikasi, tadqiqot predmeti va kontseptsiyasiga ega alohida fan sohasini ifoda etadi. Shu bilan birga, ularni o'zaro bog'liqlikda o'rganish bilan bog'liq imkoniyatlar ro'yobga chiqarilishi lozim. Bunday imkoniyat jumladan fanlararo yondashuv asosida ta'minlanadi. Uni o'quv fanlarini integratsiyalash shakli sifatida ham, sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilish metodi sifatida ham qarash mumkin. Biz fanlararo yondashuvni umumta'lim hamda maxsus fanlarni integratsiyalashda pedagogika fani uchun eng optimal yo'nalish sifatida qaraymiz.

XULOSA

Integratsiya ta'lim sifatini oshirishning kuchli vositasidir. Mavzular, istiqbollar va o'quv tajribalarini birlashtirish orqali talabalar dunyo haqida kengroq tushunchalarni rivojlantiradilar, tanqidiy ko'nikmalarga ega bo'ladilar va faol o'quvchilarga aylanadilar. Ta'lim sohasidagi integratsiyani rivojlantirish uchun siyosatchilar, maktab ma'murlari va o'qituvchilar:

- Fanlararo o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun turli fanlardan o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik va muloqotni rag'batlantirish.
- O'qituvchilarga samarali integratsiya uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga yordam berish uchun kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini taqdim eting.
- Uzluksiz integratsiya va hamkorlikni osonlashtiradigan texnologiya vositalari va resurslaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash.
- Loyiha asosida baholash, portfellar va taqdimotlarni ta'kidlab, integratsiya maqsadlariga mos kelish uchun baholash usullarini qayta ko'rib chiqing.
- Izlanish, qiziqish va ijodkorlikni rag'batlantiradigan ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yarating.



Ta'lim integratsiyasini qabul qilib, biz talabalarning tobora o'zaro bog'liq va murakkab dunyoda harakat qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, bilimlar va fikrlash qobiliyatlari bilan ta'minlanishini ta'minlashimiz mumkin. Integrativ yondashuvlar talabalarni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga tayyorlaydigan va ularga jamiyatga mazmunli hissa qo'shish imkoniyatini beradigan sifatli ta'lim uchun asos yaratadi.

REFERENCE

1. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: —Fan va texnologiyalarl nashriyoti, 2008.
2. Azizzo'jayeva N.«Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat». TDPU-2003.
3. Г.И.ХАСАНОВА —Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзаликлари‖ Жиззах: 2020. 420 бет. 223-2256
- 4.Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782
- 5.М.Усмонова . Ўқувчи шахсига йўналтирилган педагогик технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон.
- 6.М.Усмонова .Педагогик жараён лойихаси – машғулотлар самарадорлигини таъминлаш воситаси сифатида Бошлангич таълим ва жисмоний маданият йўналишида сифат ва самарадорликни ошириш: муаммо ва ечимлар Халқаро илмий конферентсия. Тошкент. 25 май, 2017 йил
- 7.Садиковна, у. м. (2013). Ali Şir Nevai Eserlerinde Bitki Adları . Dil ve Edebiyat Araştırmaları , (8) , 0-0 . Retrieved from
8. Maxfuza Usmanova, THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS , Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №54.